

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI  
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH  
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI  
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

# YAKUNIY HISOBOT



**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**  
Davlat oliy ta'lim tashkiloti

**61010200 – Sport faoliyati: futbol**  
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI  
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

**61010200 – Sport faoliyati: futbol**

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN  
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

*(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)*

## EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



**Rais: ARTIKOV ASKAR AKBAROVICH**

**O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti**

**fan doktori (DSc), professor**



**A'zo: YUSUPOV NODRBEK MAXMUDOVICH**

**O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti**

**falsafa doktori (PhD), professor**

## 1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

|                                                              |                                                                                                     |
|--------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Ariza raqami                                                 | MAO260101                                                                                           |
| Xulosa raqami                                                | 758                                                                                                 |
| Xulosa sanasi                                                | 20.06.2026                                                                                          |
| Ta'lim tashkilotining to'liq nomi                            | "TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI"<br>DAVLAT MUASSASASI                                           |
| Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari | Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy. Guvohnoma: MAS № 0000289, 08.07.2026. |
| Baholangan ta'lim dasturi nomi                               | Sport faoliyati: futbol                                                                             |
| Yo'nalish / mutaxassislik kodi                               | 61010200                                                                                            |
| Akkreditatsiya usuli                                         | masofaviy / joyiga chiqib                                                                           |

## 2. HUQUQIY ASOSLAR

### Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

### Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

### 3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

|                                                                                                                      |                                                              |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------|
| <b>1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi:</b><br><i>License/Certificate of Educational Institution:</i>    | MAS № 0000289, 08.07.2026                                    |
| <b>2. Ta'lim tashkilotining turi:</b><br><i>Type of Educational Institution:</i>                                     | Davlat oliy ta'lim tashkiloti                                |
| <b>3. Ta'lim dasturi kodi va nomi:</b><br><i>Code and Name of Study Programme:</i>                                   | 61010200 – Sport faoliyati: futbol                           |
| <b>4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi:</b><br><i>Name of Study Programme in English:</i>                 | 61010200 – Sports Activity: Football                         |
| <b>5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi:</b><br><i>Name of Study Programme in Russian:</i>                    | 61010200 – Спортивная деятельность: футбол                   |
| <b>6. Hamkorlikda amalga oshirilishi:</b><br><i>Offered in Cooperation with:</i>                                     | —                                                            |
| <b>7. Ta'lim tili:</b><br><i>Medium of Instruction:</i>                                                              | o'zbek                                                       |
| <b>8. Ta'lim shakli:</b><br><i>Mode of Study:</i>                                                                    | kunduzgi                                                     |
| <b>9. Ta'lim dasturi hajmi:</b><br><i>Study Programme Credits:</i>                                                   | 240 kredit                                                   |
| <b>10. Ta'lim dasturi davomiyligi:</b><br><i>Duration of Study Programme:</i>                                        | 4 yil                                                        |
| <b>11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi:</b><br><i>Level in National Qualifications Framework:</i>                 | 6-daraja                                                     |
| <b>12. Kvalifikatsiya(lar) nomi:</b><br><i>Qualification Title:</i>                                                  | Murabbiy, jismoniy tarbiya o'qituvchisi                      |
| <b>13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar:</b><br><i>Additional Qualifications Awarded:</i>                    | —                                                            |
| <b>14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi:</b><br><i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>       | Davlat namunasidagi diplom                                   |
| <b>15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr):</b><br><i>Maximum Number of Students (full period):</i> | 300 nafar                                                    |
| <b>16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili:</b><br><i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>              | Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy |

#### 4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

| №         | Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari                                                                                                                                                                                                                         | Muvofiqligi    |
|-----------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------|
| <b>1.</b> | <b>Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash</b>                                                                                                                                                                                                              | <b>Muvofiq</b> |
| 1.1.      | <i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>                                                                                                                                     | Muvofiq        |
| 1.2.      | <i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>                                                                                                                               | Muvofiq        |
| 1.3.      | <i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>                                                                                                      | Muvofiq        |
| 1.4.      | <i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>                                                                                                              | Muvofiq        |
| <b>2.</b> | <b>Ta'lim dasturlari</b>                                                                                                                                                                                                                                      | <b>Muvofiq</b> |
| 2.1.      | <i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i> | Muvofiq        |
| 2.2.      | <i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>                                                                                                                                       | Muvofiq        |
| 2.3.      | <i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>                                                                                                                                                                    | Muvofiq        |
| <b>3.</b> | <b>O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash</b>                                                                                                                                                                                          | <b>Muvofiq</b> |
| 3.1.      | <i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>                                                                                                                                                                 | Muvofiq        |
| 3.2.      | <i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>                                                                                                                                                        | Muvofiq        |
| 3.3.      | <i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>                                                                                                                                                                        | Muvofiq        |
| 3.5.      | <i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>                                                                                                                   | Muvofiq        |
| 3.6.      | <i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>                                                                                                                                                            | Muvofiq        |
| 3.7.      | <i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>                                                                                                           | Muvofiq        |

| №         | Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari                                                                                                                                                                                                                                                             | Muvofiqligi    |
|-----------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------|
| <b>4.</b> | <b>Talabalar faoliyati</b>                                                                                                                                                                                                                                                                        | <b>Muvofiq</b> |
| 4.1.      | <i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>                                                                                                                                                                         | Muvofiq        |
| 4.2.      | <i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>                                                                                                                                                                                                   | Muvofiq        |
| 4.3.      | <i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>                                                                                                                                  | Muvofiq        |
| 4.4.      | <i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>                                                                                                                                                                                                      | Muvofiq        |
| <b>5.</b> | <b>Inson resurslari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                           | <b>Muvofiq</b> |
| 5.1.      | <i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>                                  | Muvofiq        |
| 5.3.      | <i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>                                                                                              | Muvofiq        |
| 5.4.      | <i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>                                                                                                                                                      | Muvofiq        |
| <b>6.</b> | <b>Moddiy-texnik ta'minot</b>                                                                                                                                                                                                                                                                     | <b>Muvofiq</b> |
| 6.1.      | <i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i> | Muvofiq        |
| 6.2.      | <i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>                                                                                                                                                        | Muvofiq        |
| 6.3.      | <i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>                                                    | Muvofiq        |
| 6.4.      | <i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>                                                                                                  | Muvofiq        |
| 6.5.      | <i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>                                                                                                                 | Muvofiq        |

| No   | Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari                                                                                                                        | Muvofiqligi |
|------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------|
| 6.6. | <i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>                                | Muvofiq     |
| 6.7. | <i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i> | Muvofiq     |

## 5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

### 1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob bo'yicha o'tkazilgan ichki va tashqi baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida universitetda tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash tizimi universitetning strategik maqsadlari bilan uyg'un holda shakllantirilgani aniqlandi. Istiqbolli rivojlanish rejasida ta'lim sifatini oshirish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish, raqamlashtirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda monitoring va baholash tizimlarini takomillashtirish bo'yicha aniq maqsadlar, vazifalar va amalga oshirish mexanizmlari belgilangan. Rejada mas'ul ijrochilar faoliyati bosqichma-bosqich rejalashtirilgan bo'lib, ichki audit, muntazam tahlil hamda manfaatdor tomonlar fikrini o'rganish orqali xavflarni boshqarish va ularni kamaytirishga qaratilgan mexanizmlar joriy etilgani ta'lim sifatining barqarorligini ta'minlaydi. Sport faoliyati yo'nalishi uchun sport tashkilotlari, sport klublari, federatsiyalar va murabbiylarning fikr-mulohazalarini ta'lim dasturini takomillashtirish jarayoniga jalb etish, shuningdek, xavflarni boshqarish tizimining mavjudligi ta'lim dasturining dolzarbligini saqlash hamda mehnat bozori ehtiyojlariga mos rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash tizimi amaldagi normativ talablar hamda ta'lim dasturining maqsadlariga to'liq muvofiq shakllantirilgan.

### 2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob bo'yicha o'tkazilgan ichki va tashqi baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida ta'lim dasturining maqsadlari, shakllantiriladigan kompetensiyalar va kutilayotgan o'quv natijalari zamonaviy mehnat bozori talablari hamda xalqaro yondashuvlarga muvofiq ishlab chiqilgani aniqlandi. Ta'lim dasturi



nazariy va amaliy mashg'ulotlar, ilmiy-tadqiqot faoliyati, stajirovkalar hamda o'quv natijalarini monitoring qilish jarayonlarining uzviy integratsiyasi asosida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga yo'naltirilgan. Fanlar mazmunining muntazam yangilanib borilishi, ish beruvchilar bilan hamkorlikning yo'lga qo'yilgani hamda raqamli nazorat va monitoring tizimlarining joriy etilgani ta'lim sifatini ta'minlash va takomillashtirishga xizmat qiladi. Futbol yo'nalishi uchun bosqichma-bosqich kompetensiyalarni rivojlantirish modeli alohida ahamiyat kasb etadi, chunki murabbiylik, sport mashg'ulotlarini rejalashtirish va sportchilarni tayyorlash bo'yicha kasbiy kompetensiyalar izchil nazariy tayyorgarlik hamda amaliy faoliyat uyg'unligi orqali shakllanadi. Shuningdek, innovatsion pedagogik yondashuvlar va zamonaviy ta'lim texnologiyalarining qo'llanilishi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish hamda bitiruvchilarning kasbiy faoliyatga muvaffaqiyatli moslashishini ta'minlaydi. Ta'lim dasturi mazmuni amaldagi normativ talablar va zamonaviy kasbiy ehtiyojlarga muvofiq shakllantirilgan.

### **3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi**

3-bob bo'yicha o'tkazilgan ichki va tashqi baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida o'quv jarayonining mantiqiy ketma-ketligi ta'minlangani, fan sillabuslarida ta'lim maqsadlari va kutilayotgan o'quv natijalari aniq belgilanganligi hamda baholash mezonlari ECTS tizimi tamoyillariga muvofiq ishlab chiqilgani aniqlandi. Bu yondashuv ta'lim jarayonining shaffofligi, izchilligi va samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'quv jarayonida amaliy mashg'ulotlar, keys-stadilar, raqamli ta'lim platformalari hamda zamonaviy o'qitish metodlaridan foydalanilishi natijasida kasbiy kompetensiyalar bosqichma-bosqich shakllantiriladi. Futbol yo'nalishi uchun amaliy mashg'ulotlar ulushining oshirilgani, o'quv jarayonining real sport faoliyati bilan integratsiyalashgani, videotahlil, mashg'ulotlarni modellashtirish va innovatsion pedagogik metodlarning qo'llanilishi murabbiylik kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Talabalar bilimini baholash mezonlarining aniq belgilanganligi, shuningdek, apellyatsiya va murojaatlarni ko'rib chiqish mexanizmlarining mavjudligi baholash jarayonining xolisligi va ishonchiligidini ta'minlaydi. O'quv jarayoni va baholash tizimi amaldagi normativ talablar hamda ta'lim dasturining maqsadlariga to'liq muvofiq tashkil etilgan.

#### **4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi**

4-bob bo'yicha o'tkazilgan ichki va tashqi baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida talabalar faoliyatini tashkil etish tizimi shaffof, izchil va talaba manfaatlariga yo'naltirilgan holda yo'lga qo'yilgani aniqlandi. Talabalarga akademik maslahat berish, psixologik xizmat ko'rsatish, karyerani rejalashtirish va tyutorlik tizimi orqali qo'llab-quvvatlash mexanizmlari shakllantirilgan bo'lib, ular talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Talabalar faoliyatini monitoring qilish, tahliliy yondashuvlarni qo'llash hamda bitiruvchilarning bandlik ko'rsatkichlarini muntazam kuzatib borish ta'lim jarayonining samaradorligini baholash va takomillashtirish imkonini beradi. Sport faoliyati yo'nalishi uchun talabalarning psixologik tayyorgarligi, motivatsiyasini qo'llab-quvvatlash hamda bitiruvchilarning bandlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi, chunki sport sohasidagi kasbiy faoliyat yuqori jismoniy va ruhiy yuklamalar, mashg'ulotlar hamda musobaqa jarayonlari bilan chambarchas bog'liq. Talabalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimi kompleks, izchil va amaliy jihatdan samarali tashkil etilgan bo'lib, ta'lim dasturining maqsadlariga hamda amaldagi normativ talablarga to'liq muvofiq keladi.

#### **5-bob. Inson resurslari yo'nalishi**

5-bob bo'yicha o'tkazilgan ichki va tashqi baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida inson resurslarini boshqarish tizimi huquqiy, tashkiliy va strategik jihatdan puxta shakllantirilgani aniqlandi. Professor-o'qituvchilarni tanlash, faoliyatini baholash, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, malakasini oshirish hamda xorijiy mutaxassislarni jalb etish bo'yicha izchil mexanizmlar joriy etilgan bo'lib, ular ta'lim sifatini oshirish va kadrlar salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. KPI tizimining amaliyotga tatbiq etilgani professor-o'qituvchilar faoliyati natijadorligini xolis baholash, ilmiy-tadqiqot va o'quv-uslubiy faoliyatni rag'batlantirish hamda uzluksiz kasbiy rivojlanishni ta'minlash imkonini yaratadi. Futbol yo'nalishi uchun professor-o'qituvchilarning nazariy bilimlari bilan bir qatorda amaliy murabbiylik tajribasiga ega bo'lishi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki murabbiylik kompetensiyalarini samarali shakllantirish zamonaviy sport amaliyoti va real mashg'ulot jarayonlari bilan uzviy bog'liq. Inson resurslarini boshqarish tizimi universitetning strategik rivojlanish maqsadlari hamda ta'lim dasturining

ehtiyojlariga muvofiq shakllantirilgan bo'lib, uning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

## **6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi**

6-bob bo'yicha o'tkazilgan ichki va tashqi baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida universitetning moddiy-texnik ta'minoti ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun yetarli darajada shakllantirilgani hamda zamonaviy talablarga muvofiq izchil rivojlantirib borilayotgani aniqlandi. O'quv infratuzilmasi, amaliy mashg'ulot xonalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari, sport jihozlari hamda elektron va bosma adabiyotlar bilan ta'minlanganlik ta'lim dasturi talablariga mos keladi, mavjud resurslar muntazam ravishda yangilanib borilmoqda. Futbol yo'nalishi uchun zamonaviy sport inshootlari, mashg'ulot maydonlari va sport uskunalarining mavjudligi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki kasbiy kompetensiyalar va murabbiylik ko'nikmalari amaliy sport muhiti bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Shu bilan birga, inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha 6.4.2-band doirasida olib borilgan tahlillar natijasida ta'lim muassasasida zarur shart-sharoitlarni yaratish ishlari bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgani aniqlandi. Inklyuziv ta'lim infratuzilmasini to'liq shakllantirish va mavjud ishlarni izchil yakunlash ta'lim muhitining yanada takomillashishiga xizmat qiladi. Umuman olganda, moddiy-texnik ta'minot tizimi ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish hamda talabalarning kasbiy tayyorgarligini ta'minlash uchun barqaror va funksional asosni yaratadi.

## **6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR**

### **Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):**

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

### **Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:**

- ✓ Inklyuziv ta'limni tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish ishlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda (6.4.2-band) — ularni izchil yakunlash talab etiladi.
- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotni yangilab borish maqsadga muvofiq.
- ✓ Sport tashkilotlari va klublar bilan amaliyot hamkorligini kengaytirib, hujjatlashtirish tavsiya etiladi.

## 7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Inklyuziv ta'lim uchun shart-sharoitlarni yaratish ishlarini izchil yakunlash.
- ✓ Sport inshootlari, mashg'ulot maydonlari va inventar bazasini muntazam yangilab borish.
- ✓ Videotahlil va innovatsion metodlarni o'quv jarayoniga yanada kengroq tatbiq etish.
- ✓ Sport klublari va tashkilotlari bilan amaliyot hamkorligini kengaytirish.

## 8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, Toshkent davlat agrar universitetining 61010200 – Sport faoliyati: futbol bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy ta'minot, tashkiliy-boshqaruv tizimi, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayoni, talabalar faoliyatini tashkil etish, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot kompleks tahlil qilindi. Tahlillar natijasida ta'lim dasturi universitetning strategik rivojlanish maqsadlari bilan uyg'un holda shakllantirilgani, dastur maqsadlari, kompetensiyalar tizimi va kutilayotgan o'quv natijalari zamonaviy mehnat bozori talablari hamda xalqaro yondashuvlarga mos ishlab chiqilgani aniqlandi. O'quv jarayoni ECTS tamoyillari asosida tashkil etilgan bo'lib, amaliy mashg'ulotlar ulushi kengaytirilgan, real sport jarayonlari, videotahlil, innovatsion pedagogik metodlar va raqamli texnologiyalar bilan integratsiya qilingan.


Inson resurslarini boshqarish tizimi professor-o'qituvchilarni tanlash, baholash, malakasini oshirish, rag'batlantirish va KPI tizimi asosida faoliyat samaradorligini ta'minlash mexanizmlarini qamrab olgan. Professor-o'qituvchilarning nazariy tayyorgarligi bilan bir qatorda amaliy murabbiylik tajribasi ham ta'lim dasturining sifatini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Moddiy-texnik baza zamonaviy sport infratuzilmasi, mashg'ulot maydonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o'quv va axborot-resurslari bilan yetarli darajada ta'minlangan bo'lib, ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratadi.

Baholash yakunlariga ko'ra, tashkiliy-boshqaruv, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayoni, talabalar faoliyati, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot yo'nalishlarining barchasi belgilangan akkreditatsiya mezonlariga muvofiq deb topildi. Inklyuziv ta'lim bo'yicha zarur shart-sharoitlarni yaratish ishlari bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgani qayd etildi va mazkur holat ta'lim dasturini amalga oshirishga to'sqinlik qilmaydi. Umuman olganda, 61010200 – Sport faoliyati: futbol

bakalavriat ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlari va talablariga muvofiq hisoblanadi. Shu asosda ta'lim dasturi MUVOFIQ deb topildi.

#### 9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

|                                           |                                |
|-------------------------------------------|--------------------------------|
| Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi: | 02.07.2026                     |
| Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:    | 4-son                          |
| Yakuniy qaror:                            | <b>AKKREDITATSIYADAN O'TDI</b> |



+998 55 505 30 30



info@nqaae.uz  
www.nqaae.uz



@nqaaeuz



@nqaaeuzbot

